

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**THE ROLE OF THE STATE LANGUAGE IN THE ESSENCE OF THE IDEA OF NATIONAL INDEPENDENCE**

Alisher M. Egamberdiyev

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek language, state language, language policy, sovereignty, Constitution, law, new edition, Uzbek language holiday.

Received: 30.05.22

Accepted: 01.06.22

Published: 03.06.22

Abstract: This article analyzes the granting of Uzbek the status of the state language as an important strategic step towards the idea of national independence. The process of implementing the policy of active integration of the state language into public life is covered. In addition, it was argued that the implementation of state language policy is a necessary condition for an effective fight against the consequences of colonialism. The work done to further develop the Uzbek language and improve language policy in the new Uzbekistan is analyzed.

DAVLAT TILINING MILLIY MUSTAQILLIK G‘OYASI TUB MAZMUN-MOHIYATIDA TUTGAN O‘RNI

Alisher M. Egamberdiyev

Magistratura talabasi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, davlat tili, til siyosati, suverinitet, Konstitutsiya, qonun, yangi tahrir, O‘zbek tili bayrami kuni.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi milliy mustaqillik g‘oyasi yo‘lidagi muhim strategik qadam sifatida tahlil etilgan. Davlat tilini ijtimoiy hayotga faol singdirib borish siyosatini amalga oshirish jarayoni yoritilgan. Bundan tashqari, davlat tili siyosatini amalga oshirish mustamlakachilik oqibatlari bilan samarali kurashishning zaruriy sharti ekanligi asoslab berilgan. Yangi O‘zbekistonda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЯЗЫКА В СУЩНОСТИ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ

Алишер М. Эгамбердиев

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: узбекский язык, государственный язык, языковая политика, суверенитет, Конституция, закон, новая редакция, праздник узбекского языка.

Аннотация: В данной статье анализируется предоставление узбекскому языку статуса государственного как важный стратегический шаг на пути к идеи национальной независимости. Освещен процесс реализации политики активной интеграции государственного языка в общественную жизнь. Кроме того, утверждалось, что реализация государственной языковой политики является необходимым условием эффективной борьбы с последствиями колониализма. Анализируется работа, проделанная по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в новом Узбекистане.

KIRISH

Milliy mustaqillik g‘oyasi xalqimizning irodasi, o‘zbek millatining haq-huquqi, uning bashariyat sivilizatsiyasiga qo‘sghan va qo‘shayotgan betakror hissasi jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishining muhim vositasidir. Mustaqillik O‘zbekiston Respublikasining, birinchidan, jahondagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin egallashiga, ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etilishiga, uchinchidan, xalqimiz salohiyatini mustahkamlashga imkon yaratdi. Natijada, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllandi. Bu jarayonda o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi milliy mustaqillik g‘oyasi yo‘lidagi muhim strategik qadam bo‘ldi. U suveren davlat konsepsiyasining asosiga aylandi.

ASOSIY QISM

O‘ttizga yaqin tildan iborat turkiy tillar oilasiga mansub va so‘zlashuvchilar soni jihatidan turk tili va ozarbayjon tilidan so‘ng uchinchi o‘rinda turuvchi o‘zbek tili jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biridir. Biroq deyarli bir yarim ming yillik tarixga ega o‘zbek tili so‘nggi mustamlakachilik davrida hayotning asosiy sohalaridan siqib chiqarildi. Yarim asrdan oshiq davr ichida o‘zbek tili mafkuraviy, siyosiy, ma’muriy jihatdan ulkan tazyiq ostida bo‘ldi [1; 403-b.]. Natijada, O‘zbekistonda rus tili amalda davlat tili darajasiga ko‘tarildi. Respublika nashrlarining

aksariyat qismi rus tilida chop etildi. Milliy ziyolilar orasida ona tilini bilmaydigan, rus tilida so‘zlashuvchi qatlam vujudga keldi [2; 151-b.]. Til vositasida milliy davlatchilik an’analari rivojlanishiga sun’iy tarzda to‘sinqo‘yildi.

O‘zbekistonda o‘zbek tilini qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til – davlat tiliga aylantirishga mutlaqo yo‘l qo‘yilmadi. O‘zbek tilining ijtimoiy hayotda qo‘llanilishi tobora cheklanib bordi. Biroq ziyolilar, talabalar va yoshlarning faol harakati natijasida 1989-yil 21-oktabrda yurtimizda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilindi [3]. Ushbu qonun o‘zbek xalqi milliy onginging rivojlanishida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishida muhim o‘rin tutdi [4; 30-b.]. U O‘zbekistonning mustaqillik sari qo‘ygan birinchi dadil qadami bo‘ldi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, davlat tili masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ayni shu jarayonda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari tub aholisining anchagina qismi davlat tilini qabul qilishga tayyor emasligi, muayyan qismi esa umuman rus tilini afzal ko‘rishi, ko‘p milliy tillar davr talablaridan orqada qolganligi ma’lum bo‘ldi. Shu sababli O‘zbekistonda davlat tilining nufuzini oshirish bo‘yicha konseptual xarakterdagи chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yurtimizda davlat tilini ijtimoiy hayotga faol singdirib borish siyosatini amalga oshirishga kirishildi [5; 91-b.].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, sobiq SSSR hududida joylashgan va hozirda mustaqil bo‘lgan mamlakatlar uchun davlat tili siyosatini amalga oshirish mustamlakachilik oqibatlari bilan samarali kurashishning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu esa mamlakat aholisida davlat tiliga munosabatni o‘zgartirish, ommada o‘z milliy tiliga nisbatan hurmat va qiziqish tuyg‘usini uyg‘otish hamda mustahkamlash vazifalari ijrosini talab etadi. Shu bois, davlat tili haqidagi qonun qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yildi. Uning 4-moddasiga binoan, O‘zbekistonda davlat tili – o‘zbek tilidir [6].

O‘zbekiston hali SSSR tarkibida bo‘lgan va madaniy-ma’naviy sohada o‘ziga xoslikni mustahkamlashga intilgan bir sharoitda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonunning ko‘pgina moddalari o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritishni taqozo etdi. Natijada 1995-yil 22-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi [7]. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilanadi. Uning 4-moddasida qayd etilganidek, yurtimizda davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit yaratiladi hamda millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularning rivojlanishi ta’milnadi.

O‘zbek tilining jamiyatdagi mavqeyini oshirish maqsadida keyingi yillarda ham bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ular orasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi farmoniga asosan tashkil etilgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek

tili va adabiyoti universiteti alohida ahamiyat kasb etadi. Hozir tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida o‘zbek tili va adabiyotining o‘ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog‘liq masalalarini chuqr o‘rganish mazkur universitetning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida»gi qarorida Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, xalqimiz, avvalo, yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda o‘zbek tilining ahamiyati tobora ortib borayotgani alohida ta’kidlandi [9]. 21-oktabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlab tashkil etilgan tantanali marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zлади. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev ona tilimizning nufuzi, obro‘-e’tibori, milliy mustaqillik mazmun-mohiyatida tutgan o‘rnini haqida quyidagi konseptual fikrlarni qayd etdi: «Dunyodagi qadimiyligi va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligidan timsoli, bebaaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir... Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim» [10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabr kuni imzolangan «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni soha rivojidagi yangi bosqichni boshlab berdi [11]. Farmonda o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash maqsadida bir qancha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi. Jumladan, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktabr sanasi «O‘zbek tili bayrami kuni» deb e’lon qilindi [12], Vazirlar Mahkamasi qoshida Davlat tilini rivojlantirish departamenti, Atamalar komissiyasini tashkil etish belgilandi. Bundan tashqari, tegishli tashkilotlarga «Davlat tili haqida»gi Qonunni bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini, shuningdek, 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi va davlat dasturi loyihaslarini ishlab chiqish vazifalari yuklatildi [13].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining davlat tili maqomiga ega bo‘lishi O‘zbekistonning davlat mustaqilligi tomon tashlangan birinchi dadil qadami bo‘ldi. O‘z davlat tiliga ega bo‘lgan O‘zbekiston oradan ikki yil o‘tib, davlat mustaqilligiga erishdi. Yurtimiz mustaqilligi aynan o‘zbek tilida jahonga e’lon qilindi. Respublikamizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyamizning o‘zbek tilida

yaratilishi uning nufuzini yanada oshirdi. Bugun xalqaro maydonda O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ham aynan shu tilda yangramoqda. O'zbek tilining bugungi kunda yer yuzida mavjud bo'lgan 7 mingdan ziyod tillar ichidagi davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega bo'lgan 200 ga yaqin tillar safida ekanligi ham uning nufuzini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 21-oktabr sanasi yurtimizda «O'zbek tili bayrami kuni» deb belgilanishi soha rivojini yangi bosqichga ko'tardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида // Тузувчилар: М. Жўраев, Р. Нуруллин, С. Камолов ва бошқ.; Таҳрир ҳайъати: А. Азизхўжаев (раис) ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000.
2. Юсупов З.У. Ўзбекистон маданиятида миллийлик ва байналмилаллик (1970–2000 йиллар). Тарих фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2011.
3. Қаранг: “Ўзбекистон Республикасининг давлат тили тўғрисида”ги Қонун. 1989 йил 21 октябрь // <https://lex.uz/docs/109394>.
4. Абдумажидов F., Шохназаров Т. Ўзбекистон ССР Давлат тили ҳақидаги қонунига шарҳлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990.
5. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M. Abdullayev, M. Abdullayeva va boshq.; R. Ro‘ziyev va Q. Xonazarov umumiy tahririda. To‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: Sharq, 2009.
6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 1992 йил 8 декабрь // <https://lex.uz/docs/20596>.
7. Қаранг: “«Ўзбекистон Республикасининг Давлат тили ҳақида»ги Қонунга ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонун. 1995 йил 21 декабрь // <https://lex.uz/docs/121051>.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида” Фармони. 2016 йил 13 май // Халқ сўзи. 2016 йил 14 май, № 94 (6529).
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” қарори. 2019 йил 4 октябрь // <https://lex.uz/docs/4664611>.
10. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2019 йил 21 октябрь // Халқ сўзи. 2019 йил 22 октябрь, № 218 (7448).

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” Фармони. 2019 йил 21 октябрь // <https://lex.uz/docs/4561730>.

12. Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбек тили байрами кунини белгилаш тўғрисида”ти Қонуни. 2020 йил 10 апрель // <https://lex.uz/docs/4784608>.

13. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти Фармони. 2020 йил 20 октябрь // <https://lex.uz/docs/5058351>.